

BOJXONA AUDITIDA IMPORT TOVARLARNING TIF TN KODINI NAZORAT QILISHNING AYRIM MASALALARI**Makkamov Zokirjon Xusanboyevich ¹**¹Bojxona qo'mitasi Bojxona institutining

Ilmiy markazi boshlig'i, i.f.f.d. (PhD), dotsent

Abdujabborov Abduraxmon Umidjon o'g'li ¹¹ Bojxona qo'mitasi Bojxona institutining 4-kurs

bosqichi kursanti

**MAQOLA
MA'LUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:30.10.2024

Revised: 31.10.2024

Accepted:01.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

import, TIF TN kod,
tovar, tovarning kelib
chiqishi, preferensiya,
OPI qoidalari,
imtiyozlar,
Uyg'unlashgan tizim.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlardan bojxona rasmiylashtiruvidan so'ng qo'shimcha bojxona to'lovlarini hisoblashga sabab bo'luvchi amaliyotda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning yechimi bo'yicha vaziyatli misollar, ularning oldini olish choralari, mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bojxona to'lovlaridan qarzdorlikni keltirib chiquvchi asosiy omillardan biri sifatida tovarlarning TIF TN kodini noto'g'ri qo'llash holatlari, ularni aniqlash va oldini olish yuzasidan tavsiyalar batafsil yoritilgan.

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda bojxona tartib-taomillari soddalashtirilib, tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlaridan turli imtiyozlar va qo'shimcha imkoniyatlar berilmoqda. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (2016) 4-moddasiga bojxona to'g'risidagi qonunchilikdagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinishi kabi norma kiritildi.

So'ngi yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasi sezilarli ravishda ortishi asnosida bojxona organlarining mavjud resurslaridan unumli foydalanish maqsadida, xalqaro standartlar talablari hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida tovarlar bojxona

postlarida asosan yashil va sariq yo‘laklar orqali soddalashtirilgan bojxona nazoratidan o‘tkazilmoqda. Natijada tadbirkorlik subyektlarining bojxona rasmiylashtiruvini uchun sarflaydigan vaqt va mablag‘lari tejalishiga sabab bo‘ldi. Bu esa tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini yanada samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqolada qo‘shimcha bojxona to‘lovlarini hisoblashga sabab bo‘luvchi amaliyotda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularning yechimi bo‘yicha vaziyatli misollar aks ettirildi.

Tahlil va natijalar. Bojxona rasmiylashtiruvini davomida aniqlangan xatoliklarning kelib chiqish sabablari bir necha yo‘nalishlarga bo‘lib tahlil qilinganda asosiy yo‘nalishlardan biri – “tovarning TIF TN kodi noto‘g‘ri ko‘rsatilishi” ekanligi aniqlandi. Bu yo‘nalish bo‘yicha

2024-yilning 8 oyida aniqlangan jami 1 688 ta BYDlardagi xatoliklarning kelib chiqish sabablari o‘rganilganida ular asosan quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. Yangi tahrirdagi (2022) TIF TN kodlariga kiritilgan o‘zgarishlarni hisobga olmaslik;
2. Tovarni noto‘g‘ri tasniflash;
3. JBTning tegishli tuzilmasidan olingan javob xatida TIF TN o‘zgarishi;
4. Ko‘rik natijasida tovarning xususiyatlari BYDning 33-grafasida keltirilgan TIF TN kodiga mos kelmaslik;
5. Oddiy yig‘uv operatsiyasi bilan tayyor holga keltirilishi bois interpretatsiyalashning 2a-qoidasiga ko‘ra klassifikatsiyalanishi lozim tovarlar ehtiyot qism sifatida klassifikatsiyalanishi;
6. Nokomplekt tovarlarni komplekt bilan birga tasniflash.

Bojxona organlariga taqdim etilgan BYuDlar bo‘yicha tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri belgilanganligini, bojxona to‘lovlarining to‘g‘ri hisoblanganligini hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq bojxona to‘lovlaridan nazarda tutilgan imtiyozlar to‘g‘ri qo‘llanilganligini aniqlash bevosita tovarlarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (bundan keyin TIF TN)ga ko‘ra to‘g‘ri sinflanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bu borada xatoliklarning oldini olish uchun bojxona xodimlaridan tovarlarni sinflashning nazariy qoidalarini mukammal bilish talab etiladi.

Tovarlarning TIF TN kodini aniqlash uchun bizga tovar haqida to‘liq ma‘lumotlarni (tovarning tarkibi, xususiyatlari, GOST raqami, davlat standartlari, xalqaro standart talablari, tovarning yo‘riqnomasi (instruksiya), sifat sertifikat, texnik pasportidagi ma‘lumotlarini) mukammal o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Ayrim tovarlarning kimyoviy tarkibini tovarga tegishli hujjatlari orqali aniqlashning iloji bo‘lmaganda, buning uchun bojxona ekspertizasi tayinlanadi va ekspertiza usuli bilan aniqlanadi.

Bojxona xodimi bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida tovarlarning TIF TN kod raqamlarini 1-chizmada keltirilgan texnologiya bo'yicha aniqlaydi va BYUDning

2-chizmada keltirilgan grafalaridagi ma'lumotlarni o'zaro va taqdim qilingan hujjatlarga solishtiradi.

O'zbekiston Respublikasida tovarlarni TIF TN bo'yicha klassifikatsiyalash tartibi xalqaro normativ huquqiy hujjatlarda, Bojxona kodeksi va bir qator qonunosti hujjatlarida berilgan. Jumladan, 1997-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga ko'ra TIF TNni yuritish bojxona organlari vazifasiga kiradi.


MDH davlat rahbarlari tomonidan 1995-yil 10-fevralda imzolagan

"MDH a'zo davlatlari bojxona qonunchiligi asoslari"ning 206-moddasiga ko'ra (206. Классификация товаров. Таможенные органы классифицируют товары, то есть относят конкретные товары к позициям, указанным в товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности. Решения таможенных органов о классификации товаров являются обязательными, Решения других органов и учреждений по классификации товаров таможенных селях не исполняются.) bojxona organlari tomonidan qo'yilgan TIF TN kodlar yakuniy hisoblanadi.

Shu sababli, "O'zstandart" agentligining va tovarlarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini aniqlash yuzasidan xulosa beruvchi boshqa tashkilotlar nizomlarida tovarlarni TIF TN kodlarini aniqlash tavsiyaviy maqomga egaligi belgilab qo'yilgan.


1-chizma.

Tovarlarning TIF TN kod raqamlarini aniqlash texnologiyasi



2-chizma.

TIF TN kod raqamlarini aniqlashda BYUDDagi ma'lumotlarni o'zaro hamda taqdim qilingan hujjatlar bilan solishtirish sxemasi.



Quyida tovarlarning TIF TN kodini aniqlash yo'nalishda Bojxona Qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan aniqlangan va qo'shimcha bojxona to'lovlarini hisoblash bilan bog'liq ayrim holatlarni keltirib o'tamiz.

Misol: TIF TN bo'yicha 5903 20 subpozitsiyasi bilan belgilangan rulon shaklidagi "текстильные материалы с покрытием полиуретаном" tovari hududiy bojxona boshqarmasi laboratoriyasida o'rganilganida ushbu tovarlar orasida 5603 14 (нетканые материалы с покрытием) subpozitsiyasi bilan hamda 3921 90 (ткани покрытий с двух

сторон пластмассой) subpozitsiyasi bilan belgilanishi lozim bo'lgan rulon shaklidagi tovarlar borligi aniqlangan. (1-rasm)

Mazkur holatda tegishli qarorga ko'ra 5903 20 kod raqamli "текстильные материалы с покрытием полиуретаном" tovariga bojxona to'lovlaridan imtiyoz borligidan foydalanmoqchi bo'lgan, natijada 101 mln. so'm qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblanib, holat yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilgan.

Tovarlarning TIF TN bo'yicha kod raqamlari noto'g'ri belgilanish holatlariga yetarlicha misollar keltirish mumkin. Lekin bu yo'nalishda xatoliklarni oldini olish uchun nimalarga ahamiyat qaratish kerakligini ko'rib chiqamiz.



1-rasm. 3 xil matolarning tashqi ko'rinishi, TIF TN kodi va boj stavkasi.

Yuqoridagi rasmdan (1-rasm) har uchala matolar o'ralgan (rulon) shaklida turganida tashqi tarafidan tovarning TIF TN kodi umuman farqlanmasligi ko'rishimiz mumkin. Lekin bojxona ko'rigi xodimi matolarning ustki qismiga poleuretan qoplangan matolarni birma-bir tekshirib, ularning asos qismi (orqa tarafi)ga ahamiyat qaratganida 1-turdagi matoning osti to'qima matoli asosga, 2-turdagisi noto'qima matoli asosga va 3-turdagisi o'rta qismida to'qima yoki noto'qima mato bo'lib har ikkala tarafga plastmassa bilan ishlov berilganligi aniqlandi. Natijada har uchala tovarlar alohida TIF TN kodlari bilan belgilanishi lozimligi ma'lum bo'ldi.

Ushbu holatga tadbirkorlik subyekti deklaratsiya taqdim etishdan oldin, bojxona xodimi esa bojxona ko'rigi davomida e'tibor qaratmasa, tovar rasmiylashtirib, chiqarib yuborilganidan so'ng hujjatli taftishda deyarli buni aniqlashning imkoni bo'lmasligi mumkin.

Amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, bir xil nomdagi tovar o'z xususiyatiga ko'ra, TIF TNning har xil tovar pozitsiyalarida klassifikatsiyalanishi mumkin. Tovarning TIF TN kodini aniq belgilashda tovar xususiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bojxona ko'rigi dalolatnomasiga va bojxona yuk deklaratsiyasining 31-grafasiga ma'lumotlar to'liq kiritilishi katta ahamiyatga ega. Ya'ni bojxona ko'rigi dalolatnomasi va BYDning 31-grafasida tovar nomi, uning tafsilotlari to'g'ri to'ldirilgandagina, BYDning 33-grafasi (TIF TN kodi) to'g'ri belgilanganligini nazorat qilish mumkin bo'ladi.

Misol: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-460-son qaroriga asosan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 2022-yil tarhlari hamda Butunjahon bojxona tashkilotining "Uyg'unlashgan tizim sharhlar"⁵² TIF TNning 8708 tovar pozitsiyasi bilan **8701–8705–tovar pozitsiyadagi avtotransport vositalarining qismlari va aksessuarlari** tasniflanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-son Qarorida 8708 tovar pozitsiyasiga 5 (besh) foiz, 8483 tovar pozitsiyasiga 0 (nol) foiz miqdorida bojxona boji undirilishi belgilangan.

⁵²Explanatory Notes Harmonized System. WCO. <https://www.wcoomdpublishings.org/en>

Yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, bojxona to'lovlarini to'lashdan qochish maqsadida, tovarlarni TIF TNning **8708** pozitsiyasida emas balki **8483** pozitsiyasida tasniflanish xavfi mavjud bo'lib, bunda rasmiylashtirilayotgan BYUDlarning 31-grafasida tovarlarning nomlari va xususiyatlarini hamda tovarlar aynan qaysi texnikalarga mo'ljallanganligini to'liq ko'rsatmaslik holatlari mavjud. Tahlillar davomida yuqorida ko'rsatilgan transport vositalariga tegishli bo'lgan qismlarini TIF TNning **8483** tovar pozitsiyasida klassifikatsiyalanganligi holatlari mavjud.



2-rasm. Yig'ilmagan holdagi "LED voritgich"

1-holat. Mazkur "LED лампа" в разобранном виде tovarlari oddiy yig'uv operatsiyasi bilan tayyor holga keltirilishi bois interpretatsiyalashning **2-a)-qoidasi** ("2.(a) *Tovar pozitsiyasi nomida biror tovarga ko'rsatilgan har qanday havola nokomplekt yoki tugallanmagan shakldagi shunday tovarga ham ko'rsatilgan havola deb qaralishi zarur, agar nokomplekt yoki tugallanmagan shaklda taqdim etilgan ushbu tovar komplekt yoki tugallangan tovarning asosiy*

xususiyatlariga ega bo'lsa, shuningdek yig'ilmagan yoki qismlarga ajratilgan holatda taqdim etilgan komplekt yoki tugallangan tovarga ko'rsatilgan havola (yoki mazkur Qoidaga binoan ko'rib chiqilayotgan tovar pozitsiyasida komplekt yoki tugallangan tovar sifatida tasniflanuvchi) deb qaralishi zarur)ga asosan TIF TNning **8539 50 000 0** kodi bilan klassifikatsiyalanishi aniqlangan. Natijada qo'shimcha bojxona to'lovlari undirilgan.

2-holat: Ushbu suratda ko'rsatilgan uch oyoqli mototsikl 8704 tovar pozitsiyasi nomida qayd etilgan, boshqacha aytganda havola qilingan tovarning aynan o'zidir. (2-rasm)



2-rasm. Uch oyoqli mototsikl qismlarga ajratilgan va yig'ilgan holda

Mazkur rasmda esa uch oyoqli mototsiklning qisman qismlarga ajratilgan holati tasviri bo‘lib, tayyor holda bo‘lishi uchun qismlarni yig‘ish zarur, lekin bu holatda ham yig‘ilgan tayyor tovar sifatida tasniflanishi lozim hisoblanadi.

“Uch oyoqli mototsikllar (qisman qismlarga ajratilgan holda)” oddiy yig‘uv operatsiyasi bilan tayyor holga keltirilishi bois interpretatsiyalashning **2-a)-qoidasiga** asosan TIF TNning **8704 31 910 0** kodi bilan klassifikatsiyalanadi.

So‘ngi yillarda Xitoy Xalq Respublikasi Bosh bojxona boshqarmasi savdoni osonlashtirish bo‘yicha bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Avvallari Xitoy bojxona xizmati tovarlar chiqarilishidan oldin tovarlarni tekshirib, uning TIF TN kodiga oydinlik kiritar edi. Islohotlardan so‘ng, Xitoy bojxonasi bunday tekshiruvlarni o‘tkazishni to‘xtatdi. Xitoyning ushbu sohadagi savdoni osonlashtirish bo‘yicha islohotlari natijasida Xitoydan eksport qilinayotgan tovarlar uchun TIF TN kodlarini mos kelmaslik xavfi oshib ketdi. Tovarlarni rasmiylashtirish va eksport qilishda Xitoy bojxonasi tomonidan tovarlarni tekshiruvsiz jo‘natilishi natijasida TIF TN kodlardagi eng kichik xatoliklar ham importyor davlatlar va korxonalarning iqtisodiyotiga qolaversa ekologiya hamda aholi salomatligi uchun salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Odatda tovarning TIF TN kodini aniqlash bilim va mutaxassislik hamda ortiqcha vaqt, mablag‘ talab etganligi uchun tadbirkorlar XXR invoysida berilgan TIF TN kod bilan deklaratsiya yuborib xatoliklarga yo‘l qo‘ymoqda. Demak shu singari TIF TN bo‘yicha dastlabki qarorlarni va boshqa xatoliklar bo‘lgan holatlarni matbuotda e‘lon qilib, Bojxona qo‘mitasi saytida ham tadbirkorlarni doimiy ogohlantirib borishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, import tovarlarining TIF TN kodi noto‘g‘ri belgilanishini oldini olish maqsadida quyidagilarni taklif sifatida keltirish mumkin:

- **Avtomatlashtirilgan tovar tasnifi tizimi** (sun‘iy intellekt).

Tovarlarni avtomatik ravishda tasniflash uchun sun‘iy intellekt o‘rganish texnologiyalaridan foydalanish **natijasida** tovarlarning TIF TN bo‘yicha noto‘g‘ri tasniflash ehtimoli kamayadi va jarayon tezlashadi.

Hozirda Jahon Bojxona Tashkilotining WCO (World Customs Organization) Tools hamda WCO Harmonized System Database dasturlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

- **ma‘lumotlarning markazlashgan boshqaruvi – ERP tizimidan foydalanish.**

ERP tizimi kompaniyalarga oid barcha bo‘limlaridan ma‘lumotlarni o‘zida jamlaydi (moliya, savdo, inventarizatsiya, ishlab chiqarish va boshqalar).

- **xavfsizlik va muvofiqlik.**

ERP tizimlari ma'lumotlarni xavfsiz saqlaydi va qonuniy talablar va bojxona qoidalariga muvofiq ishlaydi. Natijada, tovarlarning TIF TN kodlari va bojxona jarayonlariga oid ma'lumotlar bir joyda jamlanadi, bu esa audit jarayonini soddalashtiradi hamda muvofiqlikni ta'minlaydi, audit jarayonida xatolarni kamaytiradi.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga joriy etilishi tovarning TIF TN kodini tez va to'g'ri belgilanishiga, bu o'z navbatida xatoliklarning kelib chiqishini oldini olishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi, lex.uz/acts/-2876354.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni birtaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4725-son farmoni, <https://lex.uz/docs/2647219>.
3. K.Karimqulov, B.Abduganiyev, G'.Hamroqulov. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi // Darslik — Toshkent, "Fan va texnologiyalar" Markazi. 2008-y. — 167 bet.
4. "Andrey Epov: Bizning tashqi iqtisodiy faoliyatimizning butun tovar nomenklaturasi bitta doimiy "og'riqli nuqta"dir!" //Chinalogist jurnali/ Intervyu. <https://chinalogist.ru/book/articles/intervyu/andrey-epov-vsya-nasha-tn-ved-odno-sploshnoe-bolnoe-mesto>.
5. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Содружества Независимых Государств. <https://docs.cntd.ru/document/9035084>.
6. Harmonized Commodity Description and Coding System, seventh edition (2022)/<http://www.wcoomd.org/en/topics/nomenclature/instrument-and-tools/hs-nomenclature-2022-edition.aspx>.